

BADIIY MATNLARDA XUSUSIY MUALLIF O'XSHATISHLARI TALQINI

Termiz davlat universiteti II bosqich talabalari:

*Rabbimqulova Go'zal
Ziyadullayeva Marjona*

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Dilrabo

Anontatsiya: Ushbu maqolamiz badiiy matnlardagi o'xshatishlar va xususiy o'xshatishlar taxlilini yoritishga qaratilgan bo'lib, turli matnlardan misol keltirib kengroq ifodalanadi. O'xshatishning badiiy matn va nutqimizda ishlatilishi va ularning farqlari ham bir qancha ta'riflab o'tiladi. Shuningdek, badiiy matnda bu tasviriy vositaning ahamiyati hamda o'rni yoritilgan.

Annotation: This article is aimed at illuminating the analysis of similes and specific similes in artistic texts, and is more widely expressed by giving examples from various texts. The use of similes in artistic text and speech and their differences are described in several ways. Also, the importance and role of this visual tool is highlighted in the artistic text.

Kalit so'zlar: o'xshatish, xususiy o'xshatish, muallif, badiiy matn, tasviriy vosita, nutq, badiiy matn tili.

Key words: simile, specific simile, author, artistic text, visual medium, speech, artistic text language.

Barchaga ayonki, badiiy asar yaratayotganda muallif o'z ichki kechinmalarini, o'y-hayollarini, his-tuyg'ularini mutolaachiga tushunarli, yoqimli va unitilmas bo'lib ta'sir qilishi uchun turli o'xshatishlardan, uslubiy vositalardan va tasviriy vositalardan foydalanadi. O'xshatishlar chiroyli, takrorlanmas bo'lsa asar

o'quvchilari ongida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ma'lumki, o'xshatish ancha qadimdan, keng va ko'p ishlatililib kelayotgan badiiy matn vositasi. Eslab o'tish joizki, o'rta maktab yoshiga yetib, badiiy asarlar olamiga kirib kelayotganimizdan, maktab darsliklarimizda, avvalo o'xshatish keng va tushunarli ta'riflab berilgan.

O'xshatishni o'z nomidan ham nima ekanligini, vazifasini tushunib, anglab olsak bo'ladi. O'xshatish bu — "ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, kankretroq, bo'rttiribroq ifodalash"¹. O'xshatishlar nafaqat badiiy matnlarni, balki, nutqimizni ham go'zal, mazmunli qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa badiiy matnlarning tilini bezashda, tasvirlayotgan voqea-hodisasini, obrazlarini yorqinroq ifodalashda va tasvirning aniqliligini oshirishda keng foydalaniladi. O'xshatish ma'no jihatidan ikkiga bo'linadi:

Xususiy o'xshatish va umumiy o'xshatish.

Xususiy o'xshatish deb yozuvchining individual qarashlaridan kelib chiqib, atrofda, boshqa shoir va yozuvchilarda takrorlanmaydigan, xalq tilidan foydalangan xolda qilgan o'xshatishlariga aytiladi. E'ibor bilan nazar solinsa, bunday o'xshatishlar orqali ijodkorning so'z boyligini, badiiy saviyasini, kuzatuvchanligini ko'rish mumkun. Umumiy o'xshatish esa o'zimizning nutqimizda keng qollanadigan, va barchamizga yod bo'lib qolgan o'xshatishlardir. Ta'kidlash joizki, aynan shuning uchun ham bu o'xshatishlar ta'sir kuchini yo'qotgan bo'ladi. Har kuni bir xil ovqat yeyaversak ko'nglimizga uradi. Lekin bu ovqatni mohir oshpaz mazzali qilib pishirib bersa o'zgacha ishtaha bilan tanavvul qilamiz. Shu jumladan, an'anaviy o'xshatishlarni ham so'z ustalari bo'lgan qobiliyatli ijodkorlar o'ziga xos ishlatsa, yangicha, g'aroyib o'xshatishni ko'rganday bo'lamiz. Xususiy o'xshatishlar har bir yozuvchining asarlarida mohirona aks ettiriladi. Ana shunday yozuvchilardan A.Qahhor, O'.Hoshimov va Ch.Aytmatovlar shular jumlasidandir. Abdulla Qahhorning "Bashorat" hikoyasida "...Said Jalolxon sekin labini qimtib pashshani oyog'idan qisib oldi. Tuzoqqa tushgan bu dilozorni ushlab 2 barmoq

orasida aylantirib tashlash qasdida ko'tarilgan qo'l to labiga kelguncha lanati pashsha oyog'ini sug'irib qochdi..." ushbu hikoyadagi dilozor bu pashshaga nisbatan ishlatilgan, bu yerda nafaqat u o'xshatish balki kinoya ham desak mubolag'a bo'lmaydi. O'xshatishlar keltirilganda o'xshatilayotgan narsa birinchi bo'lib ko'z o'ngimizda gavdalanadi Abdulla Qahhorning "Jonfig'on" hikoyasida ana shu manzaraga guvoh bo'lamiz. "...Malohatning ko'k piyoladan ko'ra kichikroq bo'qog'i bo'lib, shuni o'tgan yili kuzda kestirgan ekan" birinchi bo'lib ko'k piyolaga, qahramonning bo'qog'ini o'xshatgan, bunday o'xshatish boshqa yozuvchilar asarida uchramaydi, shuning uchun ham xususiydir. O'tkir Hoshimov o'zining "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida ko'plab xususiy o'xshatishlarga duch kelamiz. Masalan, "Haqiqiy dengizchi ummonda o'zini qanchalik erkin his qilsa, haqiqiy yozuvchi ham so'zlar ummonida shunchalik erkin suzishi kerak" jumlasida dengizchi-yozuvchi bular o'zaro bir biriga o'xshatilmoqda, bu muallif tomonidan qo'llanilgan o'xshatish, yana bir jumlasida yozuvchilarni chumolilarga qiyoslaydi. Odatda qiyinchilik ko'rgan, mehnatkash insonlarga nisbatdan chumolidek mehnatsevar degan umumiy o'xshatishlar mavjud. Ammo yozuvchi umuman boshqa ma'noda o'xshatmoqda. O'xshatishlari asosan harakter-xususiyati jihatidan o'xshatiladi. "Ayol qalbi magnitga o'xshaydi, yaqinlashsang uzoqlashadi, uzoqlashsang yaqinlashadi." Ayolning qalbini magnitga qiyos etishi, magnitning vazifasi nuqtai nazaridan qaralgan. Bilamizki, magnit tirtish itarish vazifalarini bajaradi. Yozuvchi bu o'xshatishni juda go'zal tarzda ifoda etgan. Bu har bir yozuvchining so'z ummoni bepayonligidan darak beradi. Chingiz Aytmatovning "Oq yomg'ir" hikoyasida "Atrof jimjit, derazalardan chiroqlar sekin o'cha boshladi. Qirov qoplab endigina ochilay deb turgan bahor kurtaklari, oy shu'lasida g'ira-shira kumushdek tivlanib turar edi." Bahor kurtaklarining tundagi ko'rinishini, kumushning tovlanib turishiga o'xshatilmoqda. Bu kitobxon uchun yangi bir o'xshatish hisoblanadi, Chingiz Aytmatovning yana bir hikoyasida to'lqinlarni, dengizlar, tabiat manzaralarini badiiy talqinda, butunlay o'zgacha o'xshatishlar

bilan ifodalaydi. Uning "Baydamtol sohillarida" hikoyasida quydagicha "...Yana sal o'tmay suv bilan qoya to'qnashib, darani gulduros ovozlar qoplab olardi. To'lqinlar sig'ishmayotganday, bir-birining ustiga mingashardi. Goho-goho ayg'ir kabi olishib sapchishardi." To'lqinlarning mavjlanishi xuddiki ayg'irlarning olishuviga o'xshatiladi. Xususiy o'xshatishlar muallifning ichki dunyoqarashini ochib beradi, kitobxon uchun ham yangi olamni kashf etadi. Xususiy o'xshatishlar takrorlardan holi bo'ladi. Yozuvchining mohirligi uning xususiyligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor Asarlar 5 jildlik, 1- jild. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti –1987.
2. Chingiz Aytmatov hikoyalari. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. O'tkir Hoshimov Daftar hoshiyasidagi bitiklar
4. Ma'rufjon Yo'ldishev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T: 2007
5. Choriyeva Laziza "O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA XUSUSIY O'XSHATISHLARNING LINGVISTIK TAHLILI." nomli maqolasi. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»